

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**Baratov Baxtiyor Kodirovich**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**Valijonova Durdona Sherzodjon qizi**

*FDU, 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining umuman olganda, bolaning psixologik-pedagogik xususiyatlari nima ekanligi, psixologiya tushunchasining mazmuni, bolalar ruhiyati, pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, bolaning qanday usullar va metodlar orqali dar jarayonini va mashg'ulotni o'zlashtirishi kerakligi va bunda pedagog qanday interfaol yo'llardan foydalanishi kerakligi aytib o'tilgan.

**Kalit So'zlar;** pedagogika, psixologiya, ruhiyat, metod, usul, tadqiqot, interfaol metodlar, individual yondashuv, bola shaxsiyati.

### **KIRISH**

Bola maktabda bilim olish bilan birga o'rtoqlari bilan munosabatda bo'ladi. Shu jihatdan u nima yaxshi-yu nima yomonligini, nima qilish kerak va aksincha nimani qilmaslik kerakligini bilib oladi. Bola muayyan maqsad ko'zlab aqlga muvofiq ish tutishni va fanlar orqali chuqur bilim egallab, insonlarga va ularning fe'l-atvorlariga tanqidiy baho berishni o'rganib boradi. O'rtoqlari bilan munosabatlarida, xatti-harakatlarida ajralib tura boshlaydi. O'zi anglayotgan axloq me'yorlarini boshqalarga va o'ziga nisbatan qo'llab, xulosalab ularni ma'lum bir mezonlarga sola boshlaydi. Bundan ko'rindaniki, o'qituvchi asosiy tashkilotchi ekan, avvalo o'zining ma'naviy saviyasi, dunyoqarashi yuqori bo'lishi lozim. Shuningdek. Pedagog qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, ma'naviy savodxonligini o'zlashtirishlariga yordam beradigan uslublarini yaxshi bilishlari lozim.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Borliq rivojlanishida va taraqqiy etishida ma'lum bir o'zgarishlar e'tiborli hisoblanadi. Shu ma'noda bola rivojlanib, kamol topishida ham pedagogning va tom ma'noda pedagogika va bundan tashqari psixologiya fanlarining ham ahamiyati beqiyosdir. Pedagogika so'zi yunonchadan olingan bo'lib "bola yetaklayman" degan ma'noni ifodalaydi. Ijtimoiy tarbiyaning umumiyligini qonuniyatlar, jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fandir. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Avvalo, pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida vujudga keladi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi va olimlar hayolini band qilib kelgan. Mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomul Mulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", va Alisher Navoiyning bir qator

asarlari odob-axloq qoidalariga daxldordir. Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi kata bo'ldi.

XVIII-XIX asrlarga kelib O'rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifikat jonkuyarlari yetishib chiqqan. Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, jamoa va shaxs muammolari va shu kabilar ikki fanni birlashtiradi. O'zbekiston Respublikaining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunida ta'lif davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta va mas'uliyatli vazifalarni yukladi. "Biz Yangi O'zbekistonni yuksak madaniyat va na'naviyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Shu munosabat bilan "Yangi O'zbekiston-ma'rifikatli jamiyat" konsepsiysi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi"<sup>19</sup> O'quvchilarda fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Pedagogik faoliyatda o'quvchilarning pedagogik-psixologik bilimlari deyilganda, asosan o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlariga xos bo'lgan psixologik va pedagogik bilimlarni egallashi ko'zda tutiladi. Bunday vaziyatda pedagog har bir o'quvchi bilan individual tarzda shug'ullanishi va muloqot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda muloqot madaniyati bir maqsadga qaratilgan o'zaro ta'sir qilish xususiyati bo'lib, uning mazmunida o'zaro fikr almashish, kerakli bo'lgan axborotlarni olish va jamlangan axborotlarni yetkazib berish holati o'z aksini topgan. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchiga pedagogik-psixologik ta'sir qilish uchun kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatda bo'lishi va profilaktik va pedagogik aloqani rivojlantirish uchun qulaylik yaratishga imkon beradi. Shu o'rinda o'qituvchi bolaning psixologik holatlarini ham ahamiyatga olishi kerak. Bolalar psixologiyasi fani taraqqiyoti ikki asosiy yo'nalishda kechadi. Psixik taraqqiyot manbalari muammosining nazariy hal etilishi va bolalar psixikasini o'rganishning yanada samaraliroq metodlarini qidirish bilan amalga oshadi. Ta'lif-tarbiya jarayonida bolalarga individual yondashish uchun ularning psixologik-individual xususiyatlarini, shaxsining o'ziga xosligini bilish va o'rganib boorish zarur.

"Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak"-deb yozgan edi K.D.Ushinskiy. Shu ma'noda psixologiya va pedagogika fanlari bir-biri bilan uzviy aloqada hisoblanadi. Pedagogika ta'lif va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fandir. U ta'lif va tarbiyaning maqsad va vazifalarini va ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. Pedagogika va psixologiya fanlarining insonga ta'lif va tarbiya berish sohasidagi

<sup>19</sup> Xalq so'zi gazetasi, 2021-yil 9-sentabr.

hamkorligi chuqurga tarixga ega. Shu o'rinda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi har bir bola bilan ishlash jarayonida ularning ruhiy holatini ham inobatga olishi, ko'zdan qochirmasligi kerak bo'ladi. Zarurat bo'lganda esa mакtabda faoliyat olib borayotgan psixolog o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi kerak bo'ladi. Mana shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish o'rinniki, o'z davrida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu fanlar orasiga esa psixologiya markaziy o'rin egallashini ta'kidlagan edi. Bolaga ta'lim va tarbiya berishga oid vazifalarni hal etishda pedagogika qanday qilib ta'lim-tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Pedagogika bolaning ta'lim-tarbiyasida turli xil metodlardan, o'yinlardan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil qilish kerakligini ta'kidlasa, psixologiya esa buning sababi ushbu davrda o'yindan foydalanish yetakchi faoliyat ekanligini ta'kidlaydi. Shundan anglashiladiki, pedagog dars jarayonini sifatlari va mazmunli va eng asosiysi qiziqarli bo'lishini ta'minlash uchun bir qator metodlardan, usullardan va hozirgi zamon talabi hisoblangan interfaol metodlardan ham samarali va o'rinali foydalana olishi kerak. Bundan tashqari psixologiya fani nazariyasi va amaliyoti ajralmas birlikni tashkil etadi. Albatta, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. O'rtadagi farq ularning maqsadlari, konseptual apparati va metodologiyasi ular doirasida amalga oshiriladigan chora tadbirlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Fundamental-nazariy tadqiqotlarning asosiy maqsadi amaliyot uchun bo'lgan ahamiyatidan qat'iy nazar, psixik hodisalar haqidagi bilimlarni kengaytirib, borishdan iborat bo'ladi. Amaliy psixologiya esa kundalik hayot bilan bog'liq konkret muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazadi. Fundamental tadqiqotlarda tadqiqotchi shaxsning ta'sirisiz ham ilmiy metod o'z vazifalarini bajaradi. Ammo amaliy psixologiyada psixolog shaxsi o'tkazilayotgan tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Nazariy izlanishlarda qo'llanilayotgan ishonchliligi, validligi va mutanosibligi tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etsa, amaliy psixologiyada bular asosiy rol o'ynamaydi. Shunga qaramay, bola psixik taraqqiyotiga xos qonuniyatlar va nazariy bilimlarni egallabgina haqiqiy mutaxassis psixolog bo'lib yetishishi mumkin. L.B.Obuxova o'rinali ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi sohasidagi nazariy vazifalar hal etilgandan keyin ilmiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ham kengayadi. Bundan tashqari o'qituvchi bolaning pixologik holatini bilish uchun asosiy kuzatish metodidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni, o'zlashtirishda qiynalayotgan bolani obdon kuzatib uni tahlil qilib boorish orqali o'quvchini ruhiy dunyosini bilib olishi mumkin bo'ladi. Shu asnoda bola bilan qanday ishslash kerakligi va qanday usullardan foydalansa asosli bo'lishi kerakligini ham bilib oladi. Shunday qilib, bolaning gedagogik va psixologik tarbiyasida asosan o'qituvchining roli ahamiyatli hisoblanar ekan.

### XULOSA

Xuloa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, inson dunyoga kelishi bilan faol jamiyat a'zosiga aylanadi. O'sadi, ulg'ayadi, kamol topadi. Bu jarayonda turli xil qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga va ajoyib sinovlarga duch kelishi tabiiy. Shu jihatdan olganda, chaqaloqligidan to voyaga yetguniga qadar bolaga ota-onada va pedagog ustozlar to'g'ri yo'ko'rsatib, tarbiyalab kelishadi. Shu ma'noda oiladan, ota-onadan tarbiya olsa, bog'cha, maktab va boshqa bilim dargohidagi ustizlardan ta'lif va ma'naviy tarbiya ham olib ulg'ayadi. Jamiyatga asta sekinlik bilan moslashib, o'rgana boshlaydi. Bu jarayonda yana albatta ota-onaning va eng asosiysi ustozlarning roli juda katta hisoblanadi. Ustozlik, murabbiylik maqomiga erihib sharafli maqsadlardan biridir. Xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchisini olaylik. Bolaga maktabga kelgandan boshlab, partada to'g'ri o'tirish qoidalarini, ruchkani ushslash tartibini va shu o'rinda o'zidan katta insonlarni hurmat qilishgacha o'rgatib uning savodini chiqaradi. Bola harfni, so'zlarni taniy boshlaydi. Eng asosiysi, olamni va dunyoni his qila oladi. Unda tasavvur uyg'onadi. Mana shu ezgu ishlarning boshida ustoz murabbiylar turadi. Har bir bolaning ruhiy dunyosi o'zgacha hisoblanadi. Pedagog ularni his qilib, o'rganib, tahlil qilib borishi lozim bo'ladi. Bu yo'lida unga sabr matonat, kuch quvvat va eng asosiysi kuchli bilim zarur bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2002.
2. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi, Toshkent, 2017.
3. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika, Darslik, Sahhof 2023.
4. B.S.Siddiqov, D.F.To'xtasinov, N.Q.Olimova. Pedagogika, Farg'ona 2023.
5. B.M.Umarov. Psixologiya, Voris nashriyot, Toshkent, 2012.
6. M.Pardayeva, O.Musurmonqulova, A.Qo'shmonov. O'quvchilarning ta'limg' tarbiyasidagi muhit; Muammo va yechim, metodik qo'llanma, Toshkent 2015
7. Wikipedia, ziyonet.
8. Begmuradovich, S. A. (2025). EINSATZ VON INFORMATIONSTECHNOLOGIE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(3), 97-102.
9. Bekmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Ta'lif, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(2), 180-184.
10. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 20-23.
11. Суяров, А. Б. (2025). ТЕХНОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. ZAMIN ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(2), 9-15.

12. Суяров, А. Б. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 217-225.
13. Mamatova, N. K., Israilova, N. K., Mamatov, R. R., & Sodikov, D. K. (2021). German Education system and its pedagogical significance in the world Education system. International journal of innovations in engineering research and technology, 8(04), 99-102.
14. Xudaberdiyevna, I. N. (2023). STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF GERMAN YOUTH SLANG. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 285-288.
15. Israilova, N. (2023). KIEZDEUTSCH SOTSIOLEKTINING ZAMONAVIY NEMIS TILIDA PAYDO BO'LISHI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 4), 5-8.
16. Исраилова, Н. (2023). ГРАММАТИЧЕСКИЕ И ФОНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ KIEZDEUTSCH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 2), 114-117.
17. Исраилова, Н. Х. (2015). Заемствования из других языков как способ обогащения лексического состава языка в процессе глобализации. Наука и мир, (10-2), 15-17.